

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING “IKKI EMAS, TO‘RT TIL KERAK”

MAQOLASI HAQIDA

Eshboyeva Dinora,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islomshunoslik yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

dinoraeshboyeva23@gmail.com

Annotatsiya

maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til kerak” maqolasining mazmun-mohiyati, o‘z davridagi va bugungi kundagi ahamiyati, yoshlarning ilm olishidagi o‘rni va ko‘p tillilikning katta ahamiyatga egaligi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: til, rusiy, forsiy, turkiy, arabiy, ingliz, Forobiy, madaniyat, shariat, adabiyot.

ABOUT MAHMUDHOJA BEHBUDI'S ARTICLE "FOUR LANGUAGES ARE NEEDED, NOT TWO"

Abstract

The content of Mahmudhoja Behbudi's article "We need four languages, not two", its importance in its time and today, the role of young people in learning and the great importance of multilingualism are discussed in the article.

Keywords: language, Russian, Persian, Turkish, Arabic, English, Farobi, culture, Sharia, literature.

Mahmudxo‘ja Behbudi yurtni, millatni, yoshlar kelajagini, ularning ilm olishlari, vatanning taraqqiy davlatlar qatoriga qo‘shilishi uchun bor kuchi bilan harakat qildi. Bu maqsadlar yo‘lida hatto asarlar, maqolalar va dramalar nashr ettirdi. Shunday maqolalar qatorida bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan muallifning “Ikki emas, to‘rt til kerak” maqolasi joy olgan. Unda yoshlarning ko‘plab tillarni o‘rganishga undash, shuningdek, buning qanchalik katta ahamiyatga ega egaligi, qadimda bizning diyorda uch tillilik bo‘lganligi eslatib o‘tadi.

“Ikki emas, to‘rt til kerak” maqoladagi eng muhim jihatlardan biri yoshlarni ko‘p tilli bo‘lishga undash orqali, vatanimizni rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shishdir. Ya‘ni qachonki yosh avlod taraqqiy etgan davlatning tilini o‘rgansa, o‘sha tilda nashr ettirilgan adabiyotlarni o‘rganish vas hu tilda so‘zlovchi olimlardan dars olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Albatta, bunda bitta narsa e‘tibor berish kerak, bu yoshlarning tarbiyasidir. Ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash darkor. Ular taraqqiy etgan davlatga o‘qish uchun borib, unda qolib ketmasligi zarur, ya‘ni ulardan ilm va tajribalarni olib, ularni vatanimizda qo‘llash va yangi ixtirolarni qilish kerak. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham Zayd ibn Sobitni yahudiy tilini o‘rganishga buyuradi. Yahudiylardan kelgan xatlarni o‘qish uchun yahudiy tilini biladigan inson zarur edi. Hozirgi kunda ham yoshlar ko‘plab tillarni bilishi vatan va millat uchun ham zarurdir.

Maqolada arabiy, turkiy, forsiy va rusiy tillarni bilish kerakligi aytib o‘tiladi. O‘z davrida yuqoridagi tillarni bilish katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki Podsho Rossiyasi hukmronlik qilayotgan paytda rus tilini bilmaslik mumkin emas edi. Hukumat tomonidan chiqariladigan qonunlar, ba‘zi gazetalar ham rus tilida nashr ettirilgan. Asosiysi davlat tili rus tilida olib borilgan. O‘zbek tili davlat tili darajasiga ko‘tarilmagan bir davrda rus tilini biladigan insonga ehtiyoj katta bo‘lgan. XX asrning so‘ngi choragi, sovet hukumati hukmronligining oxirgi davrlariga nazar soladigan bo‘lsak, maktablarda asosiy til sifatida rus tili o‘qitilganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Chunki mustamlakachi davlatning tili rus tili edi, shuning uchun ham tobe mamlakatlarda shu til o‘qitilgan va bu tilda ish yuritilgan. Turkiy tilni bilish bu harbir o‘zbek bo‘lgan inson uchun burchdir. O‘z ona tilini bilmaslik johillikdan boshqa narsa emas. Qolaversa bu vatanga va millatga xiyonatni ham anglatadi. O‘sha davrda forsiy tili chet tili sifatidagi o‘rni ulkan bo‘lib, ko‘plab madrasalarda ushbu tilda o‘qitilgan. Fors tilining ahamiyatida va qadrli til ekanligi haqida muallif quyidagi so‘zlarni keltiradi: “Fors shoiru udabosi asarlari qiyomatg‘acha lazzati ketmayturgan xazinai ma‘naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoyilar milyardlar sarf etarlar¹”. Shuningdek, har bir turk forsiy tilni bilishi, har bir fors turkiy tilni bilishi kerakligi qayd etiladi. Albatta, islom dinini o‘zi uchun bilish har bir musulmon uchun farzi ayn hisoblanadi. Shu jihatdan musulmon kishi islom dinining muqaddas kitobi Qur‘oni Karimni o‘qiy olishi kerak. Qur‘oni

¹ Mahmudxo‘ja Behbudiy. Ikki emas, to‘rt til kerak. Oyna, 1913.



Karim arab tili nozil qilingan, uni o'qish uchun esa arab tilini bilish zarur. Madrasalarda ham diniy ilmlarning ko'plari arab tilida olib boriladi. Har bir zamonda musulmon inson uchun arab va o'z ona tili bilish muhim ish bo'lib qolaveradi. Muallif o'z maqolasini yakunlar ekan xulosa o'rni quyidagilarni qayd etadi: "Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy. Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur²". Ushbu jumalardan ham ayon bo'ladiki, bugungi kunda tirikchilik va o'zgalardan orqada qolib ketmaslik uchun zamona tillarini o'rganish kerak. Bugungi kunda ingliz tili rivojlanayotgan paytda, bu tilni bilmaslik bizmiz uchun halokatdir. Yoshlarimiz ingliz, arab, rus va o'zbek tillarini bilishi zarur, chunki bu zamon talabi. Shubhasiz, bundan ko'p tillarni biladigan yoshlar bizning yurtimizdan chiqadi. Ajdodlarimiz ko'plab tillarni bilgan va ushbu tillarda ijod qilgan, xususan, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan va ularning qoni bizda oqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Ikki emas, to'rt til kerak. Oyna, 1913.
2. Zaynabiddin Abdirashidov. Mahmudxo'ja Behbudiyning tilshunoslikka oid tadqiqotlariga doir. Uzbekistan: language and culture, 2020.
3. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
4. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.

² Mahmudxo'ja Behbudiy. Ikki emas, to'rt til kerak. Oyna, 1913.